



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(7)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 210 sahifa,  
27-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari .....	10
<i>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</i>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni .....	13
<i>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida .....	17
<i>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</i>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	21
<i>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</i>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	26
<i>Madumarov Jahongir Urinbayevich</i>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli .....	29
<i>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari .....	33
<i>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</i>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir .....	39
<i>Turdibekova Risolat Shermatovna</i>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati ....	42
<i>Tursunova Durdona</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari .....	46
<i>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</i>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi .....	49
<i>Yusupova Muxabbat Anatolevna</i>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов .....	53
<i>Рысова Галия Байбулатовна</i>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts .....	57
<i>Asadova Zebiniso Makhmudovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari .....	62
<i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<i>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<i>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</i>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari .....	76
<i>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	79
<i>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</i>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish .....	83
<i>M. Badalova</i>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы: современные педагогические подходы.....	86
<b>Родина Ирина Витальевна</b>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy identikligini shakllantirishda psixologik diagnostika va rivojlantiruvchi yondashuvlar .....	91
<b>Feruz Tohirova</b>	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	99
<b>Islomova Mushtaribonu Akram qizi</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	104
<b>Nafisa Tuxtasinova</b>	
Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari .....	108
<b>To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova</b>	
Zamonaviy ta'lim oluvchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashning yangicha yondashuvi .....	113
<b>Xudayberdiev Inom Xasanovich</b>	
Yoshlar oilalarda ekologik madaniyati rivojlanishida turar joy muhiti va gender yondashuvlarining ahamiyati .....	117
<b>Yusupova Muhabbatxon Abdulajon qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida O'simliklar mavzusini o'rgatish metodikasi .....	122
<b>Normurotova Aziza Karim qizi, Fattoyeva O'g'iloy Ashurqulovna</b>	
Inklyuziv ta'lim o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda robototexnika asosidagi assistiv texnologiyalar - "Power band" va "Quvvat qo'lqop" samaradorligi.....	127
<b>Alimardanova Sitora Ikrom qizi, To'rayev Rasul Nortoijevich</b>	
Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sport mashg'ulotlarining innovatsion ahamiyati .....	133
<b>Aminov Botir Umidovich</b>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish .....	138
<b>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</b>	
Ilmiy-tadqiqotchi ayollarda akademik o'zlik shakllanishi: O'zbekiston sharoitida motivatsion omillar va ijtimoiy-pedagogik aralashuv zarurati .....	142
<b>Egamqulova Iroda Safar qizi</b>	
Texnika oliygohlarida nogironligi mavjud talabalarning ilmiy kompetentligini rivojlantirish uchun "Adaptiv tadqiqot" interaktiv metodini ishlab chiqish.....	148
<b>Gimayeva Liliya Maskurovna</b>	
Maktab boshqaruvida raqamli monitoring va tahlil tizimlaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi...	153
<b>Imamaliyev Ulugbek Turapbayevich</b>	
Onlayn qimor o'yinlariga tobe bo'lgan harbiy xizmatchilar bilan psixokorreksiya ishlarini olib borish tartibi..	157
<b>Olimov Azamat Qahramon o'g'li</b>	
Rusiyazabon o'quvchilarning o'zbekcha bog'lanishli nutqini o'stirishda mashqlarning o'rni .....	163
<b>Salisheva Zilola Ismoilovna</b>	
Xorijiy mamlakatlar tajribasida raqamli ta'lim va raqamli savodxonlikni rivojlantirishning nazariy asoslari....	169
<b>Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi</b>	
Ko'p madaniyatli kompetensiyani rivojlantirish modelini amalga oshirishning tashkiliy va pedagogik mexanizmlari va kutilgan natijalari .....	174
<b>Vasilyeva Elmira Raisovna</b>	
The Specifics of the Formation of Systems Thinking in Technical Education, Methods and Means of Development.....	178
<b>Yusupova Liliya Fanovna</b>	
Individual yondashuv asosida ko'zi o'z o'quvchilar uchun individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish metodikasi.....	183
<b>Abdullayev Oybek Alisher o'g'li</b>	

Yaqin masofalarga yugurishda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish usullari.....	190
<a href="#">Abduqahhorov Nuriddin Xabibulloyevich</a>	
Darslik yozish mas'uliyati.....	194
<a href="#">Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi</a>	
Mobil ta'lim texnologiyalari vositalari yordamida darslarni tashkil etish metodikasini takomillashtirish .....	198
<a href="#">Mamasoliyev Akmaljon Azizjon o'g'li</a>	
Yengil atletika qisqa masofaga yugurish turini o'rgatishda bosqichma-bosqich tayyorlash metodikasi .....	202
<a href="#">Omonov Shohrux Orzimurot o'g'li</a>	
Abdulla Avloniyning o'zbek tamaddunidagi o'rni xususida ba'zi mulohazalar .....	206
<a href="#">Tasbolatova Yeliza Yesey qizi</a>	

## DARSLIK YOZISH MAS'ULIYATI

Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi

Buxoro innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada XV asrning yirik olimi Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub ayrim darslik va qo'llanmalarning yaratilish tarixi haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, musiqa, "Majolis un-nafois", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Lamaot", Abdurahmon Jomiy.

**Abstract:** The article discusses the history of the creation of some textbooks and manuals belonging to the great scholar of the 15th century, Abdurahman Jami.

**Key words:** Alisher Navoi, music, "Majolis un-nafois", "Khamsat ul-mutahayyirin", "Lamaot", Abdurahman Jami.

**Аннотация:** В статье рассматривается история создания некоторых учебников и пособий, принадлежащих великому учёному XV века Абдурахману Джамии.

**Ключевые слова:** Навои, музыка, "Маджолис ун-нафоис", "Хамсат ул-мутахаййирин", "Ламаот", Абдурахман Джамии.

### KIRISH

Jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga, ijtimoiy-ruhiy muhitning taraqqiyotiga keng imkoniyatlar ochilgan mustaqil O'zbekistonda musiqa san'ati rivojiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Aslida bunday e'tibor yangi taraqqiyot davrini boshidan kechirayotgan O'zbekiston taqdirida ajdodlarimiz tomonidan ming yillar davomida to'plangan, xalq kelajagini ko'zlagan tajribalarning zamonaviy shaklda aks-sado berishi, asrlar osha o'z qimmatini bir xilda saqlab kelayotganligining nishonasidir.

Asrlar davomida she'r va musiqa bir-biridan ruh olib, inson qalbining tub-tubidan oqqan ulug' g'oyalarni o'ziga singdirib, avlodlar ma'naviy takomiliga xizmat qilgan. Shuning uchun ham Hazrat Alisher Navoiy bu sohaning o'z zamonasidagi benazir namoyandasi, ud, g'ijjak va qo'biz asboblarning mohir cholg'uvchisi Ustod Qulmuhammadga behad ehtirom ko'rsatgan. "Majolis un-nafois"ning to'rtinchi majlisida bitilgan qaydlardan ayon bo'lishicha, ulug' mutafakkir Ustod Qulmuhammad "tarbiyatig'a mashg'ul" bo'lib, uning ilmidan juda ko'p shogirdlarning bahramand bo'lishiga sharoit hozirlagan<sup>[1, 2]</sup>.

"Xamsat ul-mutahayyirin"ning uchinchi maqolotida ham Ustod Qulmuhammad nomi e'zoz bilan tilga olinadi. Musiqaning ijtimoiy-ruhiy muhitning o'zgarishiga, shaxs kamolotiga ta'sirini chin ko'ngildan his qilgan Alisher Navoiy o'zi ham bu ilmni o'rganishga astoydil kirishgan: "Faqirg'a doiya bo'ldikim, bu fanning ilmiysini dag'i bilgay..."<sup>[3]</sup>.

Qomusiy bilimlar sohibi Hazrat Navoiyning musiqa ilmida ham kamolot kasb etganligi, bu fan nazariyasini yaratuvchilaridan biri maqomiga ko'tarilganligi ulug' millatparvar olim vorislari uchun ibratdir. "Bu fanda asrining bebadali" mavlono Alishohning "Aslul-vasl" kitobi Navoiy taklifi bilan tasnif qilinadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Aslul-vasl"ni hamda zamonasining taniqli madaniyat arboblari - Mir Murtoz, Abdulloh Marvarid va Mavlono Binoiy tomonidan musiqa sohasida yaratilgan nazariy asarlarni sinchiklab o'qigan Alisher Navoiy bu kitoblarning murakkab uslubda yozilganligi, ulardagi masalalarni musiqa borasida endigina didi, salohiyati shakllanayotgan yangi boshlovchi (mubtadi) hazm qila olmasligini angelaydi. Alisher Navoiy qalbidagi ma'naviy dardlarni hamisha barchadan oldin va a'lo darajada his qilib kelgan Nuriddin Abdurahmon Jomiy insonparvar shoir istagining



ro'yobga chiqishiga bois bo'ladi: "Ul yerdinkim, alarning bul faqir sori inoyat va iltifotlari bor erdi, musiqiy va advor risolasini bitidilarkim, bu fanda andoq munaqqah va mufid risola yo'qdur"<sup>[3]</sup>.

Quvvai hofiza kuchi Nuriddin Abdurahmon Jomiy siyosini hamisha nurlantirib turgan. "Xamsat ul-mutahayyirin"ning uchinchi maqolotida naql qilinishicha, Alisher Navoiy Shayx Faxriddin Iroqiyning "Lamaot" risolasini ustoz Jomiy huzurida mutolaa qiladi. Mavlono Jomiy ul sharif kitobdan Alisher Navoiyga saboq aytishga kirishadilar. Bir necha darsdan so'ng sharhga ehtiyoj seziladi. Chunki "Lamaot" risolasi ramziy ibora-istioralar, so'fiyona istiloh va atamalarga benihoya boy edi. Shayx Yorali va boshqa shorihlarning asarlarini "nazarlariga qo'yub" saboq aytishga mashg'ul bo'lgan Mavlono Jomiyga "Lamaot"ga yozilgan sharhlarning kamchiliklari, botiniy ma'nolarni talqin qilishdagi qusurlar ayon bo'la boshlaydi. "Xamsat ul-mutahayyirin"dan o'qiymiz: "... to ulkim, ko'p mavozida shorihlarga ta'n qila boshladilarkim, "bu so'zning va ul so'zning orasida ko'p farq bor. Hamonoki, ma'nisig'a yetmay sharh bitibturlar" va bu so'z takror topqondin so'ngra faqir (Alisher Navoiy - Sh.H.) arz qildimkim: "Mundoq nafis kitobdin faqire bahra topay desa, sharh bu sharhlar bo'lsa, oyo, ne chora qilg'ay? Magar ham hazrati Maxdum shafqat yuzidin toliblarg'a bu mushkilni oson qilg'aylar". Ana shu da'vat tufayli Nuriddin Abdurahmon Jomiyning "Ashi'at ul-lamaot" nomli sharh kitobi yaratiladi.

Ulug' olim shaxsiyatidagi fidoyilik, Vatanga, elga, ilmga sadoqat I. Karimovning quyidagi so'zlarida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi: "Olimlar orasida darslik yozishga pastroq bir ilmiy ish sifatida qarash illati bor. Nega bunday? Bu psixologiya qayerdan paydo bo'lgan?... Har bir soha bo'yicha darslikni o'sha fanning atoqli vakillari yozmaydilarimi?".

"Ashi'at ul-lamaot" risolasining yaratilish jarayoni haqida ham "Xamsat ul-mutahayyirin"da ma'lumotlar mavjud. Mavlono Jomiy Shayx Faxriddin Iroqiy kitobiga sharh yozar ekan, Shayx Muhyiddin Arabiyning "Naqsh ul-fusus", "Fusus ul-hikam", "Futuhot ul-Makkiya" va boshqa olimlarning yozilayotgan yangi kitobga manba vazifasini o'tay olishi mumkin bo'lgan asarlari Nuriddin Abdurahmon Jomiy yonida turgan. Biroq yuksak hofiza quvvatiga ega bo'lgan buyuk mutafakkir ularni ochib qarashga hech bir ehtiyoj sezmagan.

Alisher Navoiy yashagan asrda, undan oldingi va keyingi davrlardagi o'quv muassasalarida muammo ilmiy fan sifatida o'qitilgan. Mutaxassislarning aniqlashlaricha, Hazrat Alisher Navoiyning o'zi o'zbek va fors-tojik tillarida yetti yuzga yaqin muammo yozgan.

Nega o'rta asrlar Sharq madaniy-ma'naviy muhitida bu janrga bu qadar jiddiy ahamiyat berilgan?

1. Muammo shoirlar badiiy mahoratini baholashda mezon vazifasini o'tagan.
2. Jamiyat a'zolari uchun aqlni charxlash, fikrni takomillashtirish vositasi bo'lgan.
3. Muammoning yechimini topish, undagi ramz va imo-ishoralarning tagiga yetish hayot, jamiyat, hayvonot va nabotot olamidagi hodisalar xususida chuqur bilimni taqozo qilgan.
4. Muammoni yechish yo'lida ilmiy, hayotiy muhokama yuritish, fikran javob izlash, qidirish, topish, tadqiq va talqin jarayoni o'quvchining voqelikka bo'lgan qarashlar tizimini kengaytirgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik va matnshunoslik metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbalarini Alisher Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin", "Majolis un-nafois" asarlari hamda Abdurahmon Jomiy faoliyatiga oid ilmiy manbalar tashkil etdi. Asarlardagi darslik va qo'llanmalar yaratish jarayoni qiyosiy tahlil qilinib, ularning ilmiy-pedagogik ahamiyati mantiqiy tahlil va umumlashtirish usullari asosida baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Muammolar mag'zidagi axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-falsafiy g'oyalar komil inson shaxsini shakllantirishda qo'l kelgan. Ixcham hajm, shavqu zavq uyg'otuvchi ta'sirchan lavhalar aqliy-nazariy mushohadalar bilan uyg'unlashib, o'quvchida mustaqil fikr va mantiqiy tafakkur yurita olish ko'nikmalarini tarkib toptirgan.

Shuning uchun ham butun ijtimoiy, badiiy-ilmiy faoliyatini inson va inson manfaatlariga yo'naltirgan Hazrat Alisher Navoiy "muammo fikri" band etadi. "Sohibkamollig'iga olam ahli" tan bergan Mavlono Sharafuddin Ali Yazdiyning "Hulali mutarraz" nomli muammo faniga bag'ishlangan kitobidan tortib, undan keyingi davrlarda shu ilmga atab yaratilgan risolalarni nazardan o'tkazadi. Ammo mavjud kitoblardagi qoidalarni berish va atamalarni sharhlashdagi har xilliklar, istilohlarni ifodalash, izohlashdagi pala-partishlik, yagona fikrga kelinmagan nazariy mulohazalar va boshqa qusurlar buyuk mutafakkir ko'nglida g'ashlik uyg'otadi. Chunki bunday kitoblardan muammo fanini o'rganish yangi boshlovchiga mushkul, uni chalg'itishi, o'quvchini boshi berk ko'chaga olib kirib qo'yishi mumkin edi. Alisher Navoiy shunday o'y-xayollar bilan band bo'lib turganida Nuriddin Abdurahmon Jomiy kirib keladilar: "Hazrati Maxdum tashrif kelturdilar, faqir munbasit bo'lub, istiqbol qilib, alar taskin topib, dedilarkim: "Basharangda inbisote (xursandlik) zohir bo'lur, ne holing bor?"

Ayttimkim: “Hazrati Maxdumning sharif maqdamlari mujibi inbisotdur, ammo bu nav’ ham xayolim bor erdi”, - deb o‘tgan maqolatni arz qildim, alar nihoyatdin tashqari xushhol bo‘lub, tahsinlar qilib, dedilar: “Haqqi va sharti budurkim, sen xayol qilibsen”<sup>[3]</sup>. Muammo faniga oid mavjud darsligu qo‘llanmalar bilan yaqindan tanish bo‘lgan, o‘zi mazkur suhbatga qadar muammo nazariyasiga oid ikki-uch risola yaratgan Mavlono Jomiy ham Navoiy boshidan kechirayotgan hissiyot bilan yashayotgan edi. Muammoga doir amaldagi qo‘llanmalar buyuk allomani ham qanoatlantirmasdi. Ustoz bilan fikrda mushtaraklik tuygan Alisher Navoiy o‘z ijodiy rejasini Abdurahmon Jomiyga aytishga jur‘at etadi: “Himmat tutsalar bu dastur bilan bu fan qoidasiga muxtasare raqam qilsam”.

Alar dedilar: “Sen bu tashvishni tortma”. Hamul ikki-uch kunda manzumi muxtasarni tahrir qildilar. Shu tariqa Mavlono Jomiyning muammo qoidalari haqidagi navbatdagi risolasi yaratiladi. Ammo “Qisqalik - donolik belgisi” ta‘biri asosida yaratilgan mazkur qo‘llanma ilmiy-nazariy mushohadalarining ixcham ifodasi, ramziy ma‘no nozikliklariga boyligi bilan mutaxassisga to‘g‘ri kelar, yangi o‘rganuvchining muammoni idrok etishi uchun yetarli darajada qulaylik tug‘dirmas edi. Shuning uchun yana Alisher Navoiy muammo qoidasiga oid kitob yozishga ruxsat berishlarini so‘rab ustoz Jomiydan fотиha iltimos qiladi. Ijzat bo‘lgach, “Mufradot” risolasini yozib, Mavlono Jomiy muhokamasiga havola etadi. Qo‘llanma Nuriddin Abdurahmon Jomiyga manzur bo‘ladi. “Xamsat ul-mutahayyirin”dan o‘qiyimiz: “Qabul nishonasi mundin o‘tmaskim, bovujudi muncha rasoilkim, holo arodadur, maxdumzodag‘a ul muxtasarni o‘qurga ishorat bo‘ldi va ul bu muxtasarda muammo fannig‘a vuquf topti”.

O‘nlab darsligu qo‘llanmalar, o‘zining bu sohada yaratgan uch-to‘rt kitobi bo‘la turib, Abdurahmon Jomiy ilmiy-uslubiy, g‘oyaviy-metodik jihatdan mukammalligi uchun Alisher Navoiyning “Mufradot” risolasidan muammo fanini o‘rganishni o‘z o‘g‘liga tavsiya qiladi va Ziyovuddin Yusuf shu qo‘llanmani o‘qib, muammo ilmidan xabardor bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, darslik yozish jarayoni nafaqat ilmiy bilimlarni tizimli bayon etish, balki muallifning pedagogik, ilmiy va axloqiy mas‘uliyatini ham o‘z ichiga oladi. Darslik ta‘lim jarayonining asosiy vositalaridan biri bo‘lib, unda berilgan ma‘lumotlarning ilmiy asoslanganligi, dolzarbligi va ishonchligi ta‘lim sifatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli darslik muallifi taqdim etayotgan har bir ilmiy fikr va xulosaning haqqoniyligi uchun javobgar hisoblanadi.

Muhokama davomida aniqlanishicha, zamonaviy ta‘lim tizimida darsliklarga qo‘yiladigan talablar sezilarli darajada kengaygan. Endilikda darslik faqat nazariy bilimlarni yetkazuvchi manba emas, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil izlanish, tahlil qilish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida qaralmoqda. Demak, muallif darslik mazmunini ishlab chiqishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, davlat ta‘lim standartlari, kompetensiyaviy yondashuv hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni inobatga olishi zarur.

Shuningdek, darslik yozish mas‘uliyatining muhim jihatlaridan biri akademik halollik tamoyillariga rioya qilishdir. Muallif foydalanilgan ilmiy manbalarni to‘g‘ri keltirishi, plagiatdan voz kechishi, ilmiy dalillarni xolis va obyektiv yoritishi lozim. Aks holda, darslikning ilmiy qiymati pasayadi va ta‘lim jarayonining ishonchligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ham ko‘rsatadiki, darslikning sifati faqat muallifning ilmiy salohiyatiga emas, balki muharrirlar, taqrizchilar va ekspertlar bilan olib boriladigan hamkorlikka ham bog‘liq. Ko‘p bosqichli ekspertiza jarayoni darslikdagi ilmiy, metodik va uslubiy kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish imkonini beradi. Shu bois darslik yaratish jarayoni individual emas, balki jamoaviy ilmiy-pedagogik faoliyat sifatida baholanishi maqsadga muvofiqdir.

Raqamli ta‘limning rivojlanishi darslik mualliflari zimmasiga qo‘shimcha mas‘uliyat yuklamoqda. Elektron resurslar, interaktiv materiallar va sun‘iy intellekt vositalaridan foydalanish darslik mazmunini boyitish imkonini bersada, ularning ilmiy aniqligi, axborot xavfsizligi va pedagogik samaradorligini ta‘minlash muallifning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari darslik yozish mas‘uliyati ko‘p qirrali tushuncha ekanligini tasdiqlaydi. U ilmiy aniqlik, metodik puxtalik, pedagogik mahorat, akademik halollik va jamiyat oldidagi mas‘uliyatning uzviy uyg‘unligini talab etadi. Shu sababli darslik yaratish jarayonida sifat nazoratini kuchaytirish, mualliflarning malakasini muntazam oshirish hamda xalqaro tajribalarni milliy ta‘lim tizimiga moslashtirish darsliklar sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Haqiqatni tan olish, mardlik - komil insonning buyuk fazilatidirki, “Xamsat ul-mutahayyirin”dan tahlilga tortilgan mazkur lavhada Nuriddin Abdurahmon Jomiy shaxsiga xos shunday xususiyat namoyon bo‘lgan. Va ayni lavha yirik davlat arbobi I. Karimovning: “Biz darslik yaratishga eng ilg‘or va eng sharafli vazifa sifatida qarashimiz, yaxshi darslik yaratgan odamlarni boshimizga ko‘tarishimiz kerak. Darslikni, agar kerak bo‘lsa, katta tanlov asosida yaratish lozim”, - degan fikrlarining buyuk ajdodlarimiz tajribasida sinovdan o‘tganligiga muhim bir dalildir.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida darslik yozish mas'uliyati nafaqat muallifning shaxsiy javobgarligi, balki ta'lim sifati, yosh avlodning bilim va dunyoqarashi hamda jamiyatning intellektual taraqqiyotiga bevosita ta'sir etuvchi muhim omil ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, kompetensiyaviy ta'lim, raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik yondashuvlarning joriy etilishi darslik mazmunini muntazam takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Shuningdek, darsliklarning ilmiy va metodik ekspertizasini kuchaytirish, mualliflar malakasini oshirish, xalqaro tajribalarni milliy ta'lim tizimi xususiyatlariga mos ravishda joriy etish hamda elektron ta'lim resurslari bilan integratsiyani kengaytirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu esa darsliklarning sifatini oshirish, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, darslik yozish mas'uliyati ilmiy, pedagogik va ijtimoiy mas'uliyatning uzviy uyg'unligi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tamoyillarga amal qilgan holda yaratilgan darsliklar zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Barkamol avlod orzusi. - Toshkent: "Sharq", nashriyot - matbaa konserni bosh tahririyati, 1999. -181 b.
2. Navoiy A. Majolisun - nafois.- Mukammal asarlar to'plami, 20 jildlik, 13-jild. -Toshkent: "Fan", 1997. -284 b.
3. Navoiy A. Xamsatul - mutahayyirin. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 15-jild. - Toshkent: "Fan", 1999. -236 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(7)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.